

ELEKTRON-O'QUV MAJMUALARNINING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Jo'rayeva Ma'mura Yunusovna

Navoiy davlat universiteti, doktorant

O'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugungi kun ta'lim tizimining talabidir.

O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish tog'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son 08.10.2019 "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish; masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish; milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish kabi vazifalar maqsad qilib olingan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi axborot ta'lim muhitiga o'zaro axborotli ta'sir muhiti sifatida qaralib, talabalar, magistrantlar hamda ilmiy izlanuvchilarning axborotga, maxsus apparat va dasturiy vositalarga bo'lgan talab ehtiyojlarini qondirish maqsadi ko'zda tutiladi. Mazkur axborotli o'zaro aloqa tarkibiga: insonlararo kommunikatsiya vositalari (elektron pochta, telefon aloqasi, chatlar, forumlar, videokonferensiyalar va boshqalar), tashqi va ichki axborot resurslariga ulanish, shuningdek o'quvchilarga taqdim etiladigan axborot resurslarining o'zi kiradi. Oliy ta'lim muassasalari (OTM) asosiy axborot resurslarini turli fanlarni o'rganishga oid elektron o'quv-metodik majmualar (EO'MM) tashkil etadi. EO'MM deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda hozirgi kunda talab etiladigan zarur interaktivlik, ko'rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko'paytirishda kam xarajat sarflash, ko'p variantlilik, ko'p bosqichlilik hamda tekshirish uchun topshiriqlar va testlar hajmining ko'p bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarining afzalligi, avvalo, o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayoniga EO'MMni joriy etish talabalarga fan bo'yicha axborotning to'liq manzarasini namoyish etish, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini ta'minlash, o'qitishni individuallashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazoratni takomillashtirish, o'quv jarayonini natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarning afzalligiga dars jarayonining yanada qiziqarli o'tishini ta'minlash xususiyatini kiritish mumkin.

Elektron o'quv-metodik majmualarni yaratishda uning ayrim muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Bugungi kunda EO'MM mazmuni albatta yangi avlod talablariga muvofiq kelishi, shuningdek, bilimlar sohasida zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot darajasiga javob berishi shart. Elektron o'quv-metodik majmualar tuzilmasi ikki mantiqiy o'zaro aloqador elementlar yoki modullardan iborat bo'lishi shart. Alohida modulni ishlab chiqish yoki ko'rib chiqishda ular turli xususiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lsada, umumiy maqsadli alohida elektron o'quv material

mazmunida ochilishi shart. EO'MM interfeysi shunday tashkil etiladiki, u qat'iy ifodali ko'rinishga ega bo'lishi, ko'rgazmali vositalar paneli foydalanuvchi uchun ishlash texnologiyasini o'zlashtirishda sodda bo'lishi shart.

Talabalar bilan o'zaro hamkorlikda EO'MMdan foydalanish ba o'quv jarayonini tashkil etish an'anaviy o'quv vositalariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega, jumladan:

- har qanday geografik nuqtadan o'quv materiallariga ulanish kafolatlanishi;
- elektron materiallarni o'z vaqtida yetkazib berilishi;
- materiallarni izlashni osonlashtirish, imtihonlarga tayyorgarlikni yengillashtirilishi;
- o'quv materiallaridan ish joylarida, uyda va mobil telefoni qurilmasini Internet tarmog'iga ulab, yo'lda ham foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- elektron materiallarning o'z vaqtida va operativ yangilanishi kabilardan iborat.
- Bugungi kunda elektron o'quv-metodik majmualarning texnologik asoslari va mazmun-mohiyati tubdan o'zgarib bormoqda.

Tekstografik axborotli mazmunga ega ta'lim majmualari o'rniga ovoz, animatsiya, video imkoniyatiga ega, virtual laboratoriya amaliyotlari, qidirish va ekspert tizimlari moduli hamda ichki dasturiy-didaktik algoritmlar, talaba — pedagog — o'quv materiali o'zaro munosabati orqali amalga oshiriluvchi multimediyali va interaktiv komplekslar kirib keldi. Xulosa qilib aytganda, elektron o'quv-metodik majmualar o'qitish jarayonini o'qitishning boshqa shakllari, jumladan, innovatsion pedagogic texnologiyalar hamda masofaviy ta'lim texnologiyalari bilan tashkil etishda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, balki ta'lim istiqbollarini ta'minlashda yanada katta e'tiborni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni,

Xalq soʻzi // 11.12.2003.

2. Oʻzbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi qonuni,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son “Oʻzbekiston
Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish
kontsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” farmoni // 08.10.2019.

3. 1. Современный электронный учебно-методический комплекс —
основа информационнообразовательной среды вуза / П. А. Мандрик,
А. И. Жук, Ю. В. Воротницкий
// Информатизация образования — 2010: педагогические аспекты
создания информационно-образовательной среды: материалы
междунар. науч. конф., Минск, 27–30 окт. 2010 г. — Минск : БГУ,
2010. — 197–201 betlar.